

**HUDUDLARDA TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MAQSADIDA
TURISTIK RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI
(SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)****Nargiza Abduvaxidova Akbardjonovna**

“Ipak yo’li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti erkin-tadqiqotchisi

Тел: +998972857839

Email: nabduvakhidova@univ-silkroad.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada, Samarqand viloyatining turistik resurslari orqali hududda turizmni barqaror rivojlantirishning samarali usullari o’rganilgan. Samarqand viloyati o’zining boy tarixiy merosi, me’moriy yodgorliklari, tabiiy go’zalliklari va madaniy qadriyatlari bilan mamlakatimizda eng mashhur turizm markazlaridan biridir. Ushbu maqolada, turizmning barqaror rivojlanishi uchun turistik resurslardan samarali foydalanishning muhim usullari va metodlari tahlil qilinadi. Xususan, ekologik turizm, madaniy merosni saqlash, mintaqaviy turizmni rivojlantirish va aholini turizmga jalb qilish bo’yicha takliflar kiritiladi.

Kalit so’zlar: turizm, barqaror rivojlanish, turistik resurslar, Samarqand viloyati, ekologik turizm, madaniy meros, turizm infrastrukturasini rivojlantirish, turistik mahallalar

Kirish: Turizm bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy sohalarda ham muhim ahamiyat kasb etayotgan global sanoat hisoblanadi. Bu soha mamlakatlarning rivojlanishida katta rol o’ynaydi, chunki turizm ta’minlaydigan xarajatlar, ish o’rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, turizmning ekologik va madaniy jihatlari ham muhimdir, chunki noxush oqibatlariga olib kelmaslik uchun turizmni barqaror rivojlantirish zarur. O’zbekistonda turizm sanoatining rivojlanishiga qaratilgan ko’plab tashabbuslar amalga oshirilgan, buning natijasida mamlakatning turistik salohiyati jahon bo’ylab tanila boshlagan. Samarqand viloyati esa, o’zining boy tarixiy merosi, me’moriy yodgorliklari, tabiiy go’zalliklari, madaniy qadriyatlari bilan alohida o’rin tutadi. Samarqand – Islom madaniyatining muhim markazlaridan biri bo’lib, bu yerda ko’plab qadimiy obidalar, o’rta asrlar me’morchiligi va tarixiy yodgorliklar mavjud. Shuningdek, Samarqand viloyatining tabiiy manzaralari ham turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu hududda, ekologik turizm va madaniy merosni saqlashga asoslangan barqaror turizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Shu bilan birga, Samarqand viloyatining turistik resurslaridan samarali foydalanish, faqat iqtisodiy foyda keltiribgina qolmay, aholi turizmi orqali ijtimoiy farovonlikni oshirishga ham xizmat qilishi mumkin. O’zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish, avvalo, mahalliy resurslardan foydalanishni, ularni saqlab qolishni va ekologik jihatdan zararsiz rivojlantirishni taqozo etadi. Bu esa o’z navbatida, hududning iqtisodiy barqarorligini va yashovchanligini ta’minlaydi. Samarqand viloyatidagi turizmni barqaror rivojlantirishning muhim jihatlardan biri – mahalliy aholini turizm sohasiga jalb qilish va turizmni ekologik ravishda rivojlantirishdir. Turizm faoliyati natijasida, hududdagi tabiiy va madaniy boyliklar ishlatiladi, lekin ularni himoya qilish va saqlash zarurati ham tug’iladi. Bu boradagi muammolarni hal etish uchun turizmning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari uyg’unlashtirish zarur.

Maqolada Samarqand viloyatining turistik resurslaridan samarali foydalanish, ekologik va madaniy merosni saqlash va rivojlantirish uchun takliflar beriladi. Shu bilan birga, turizmni barqaror rivojlantirishga oid usullar tahlil qilinadi, va natijada viloyat turizm sanoatining yanada muvaffaqiyatli bo’lishi uchun aniq yo’l-yo’riqlar ishlab chiqiladi. Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan to’liq foydalanish uchun hududdagi resurslar va imkoniyatlarni chuqur o’rganish va istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqish zarur.

Adabiyotlar tahlili

Turizmni barqaror rivojlantirish va turistik resurslardan samarali foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar hududiy rivojlanish, iqtisodiy va madaniy salohiyatni oshirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasining turizm sohasidagi qonuniy asoslarini tashkil etuvchi "Turizm to'g'risidagi qonun" (1999) o'zida turizmni rivojlantirish va tartibga solishning muhim tamoyillarini o'z ichiga oladi. Ushbu qonun, turizm faoliyatini amalga oshirishda davlat va xususiy sektorning o'zaro hamkorligini mustahkamlashga xizmat qiladi, shuningdek, turizm sohasidagi qonuniy va tartibga soluvchi mexanizmlarni belgilaydi. O'zbekistonning turizm salohiyatini to'liqroq ochib berishda ushbu qonunning ahamiyati katta [1]. A. Yu. Aleksandrov (2000) o'zining "Международный туризм" asarida xalqaro turizmni rivojlantirishning asosiy tamoyillari, usullari va tendentsiyalarini o'rganadi. U turizmni faqat iqtisodiy faoliyat sifatida emas, balki madaniyatlararo muloqotning mustahkamlanishi va xalqaro hamkorlikning rivojlanishi sifatida ko'rsatadi. Aleksandrovning ta'kidlashicha, turizmni rivojlantirishda nafaqat iqtisodiy, balki madaniy jihatlar ham muhim o'rin tutadi. U, shuningdek, turizmni rivojlantirishda ekologik va madaniy merosni saqlash zarurligini ko'rsatib o'tgan [2].

M. Б. Биржаков (2004) "Введение в туризм" nomli asarida turizmning asosiy kontseptsiyalari va uning rivojlanishining global jarayonlar bilan qanday bog'langanligini tahlil qiladi. Birjakov, turizmni soha sifatida rivojlantirish uchun zarur bo'lgan infratuzilma va boshqaruv tizimlarini ko'rib chiqadi. Samarqand viloyati misolida, turizmni rivojlantirishda infratuzilma yuksalishi, mehmonxona va transport tizimlarining yaxshilanishi, mahalliy resurslardan samarali foydalanish zarurati alohida qayd etiladi [3]. Г. М. Дехтярь (2003) "Лицензирование и сертификация в туризме" asarida turizmni boshqarish va tartibga solishning yuridik jihatlarini, shuningdek, turizm xizmatlarini sertifikatlash va litsenziyalash jarayonlarini tahlil etadi. Dextyar'ning tadqiqoti, turizm xizmatlarini standartlashtirish va sifatni ta'minlash jarayonlarining barqaror turizmni rivojlantirishdagi muhim rolini ta'kidlaydi. Samarqand viloyatida ham turizmni sifatli boshqarish va ekologik turizmni rivojlantirishda bu yondashuvning ahamiyati katta [4].

M. М. Маринин (2000) "Туристские формальности и безопасность в туризме" asarida turizmning xavfsizligini ta'minlash va turistlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish muhimligini ta'kidlash bilan birga, turizmning huquqiy va xavfsizlik jihatlarini ko'rib chiqadi. Samarqand viloyatidagi turizmni rivojlantirishda turistlarning xavfsizligini ta'minlash, xavfsizlikni yaxshilash va turizmni huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati ta'kidlanadi. Shu bilan birga, xavfsizlikni ta'minlash, turizm sohasining sifatini oshirishga ham yordam beradi [5].

Tahlil va Natijalar

O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash hamda viloyat hududidagi tarixiy, madaniy va me'moriy yodgorliklarni asrab-avaylash, ularni kelajak avlodlarga yetkazish choralari ko'rish va yodgorliklarning davlat muhofazasini ta'minlash maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu ishlar Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 29 iyuldagi 269-sonli "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha Idoralararo komissiya to'g'risidagi Nizom", "O'zbekiston Respublikasi madaniy meros ob'ektlari davlat kadastrini yuritish to'g'risidagi Nizom" va "Madaniy meros ob'ektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi to'g'risidagi Nizom"lar, Vazirlar Mahkamasining «Tarixiy obidalar, ziyoratgohlar va qadamjolarida aholiga hamda sayyohlarga Xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash choralari to'g'risida»gi majlisi bayonnomasi talablarini bajarish maqsadlariga qaratilgan.

Respublikamiz madaniy – tarixiy resurslarga boy bo'lib, bugungi kunda mamlakatimizda 7 mingdan ortiq madaniy meros resurslarimizga egamiz. Viloyatda jami 372 ta madaniy meros ob'ektlari, shundan 42 ta tarixiy obida va muqaddas ziyoratgohlar, 267 ta arxeologik manzilgohlar,

63 ta monumental yodgorliklar (haykallar, byustlar, xotira maydonlari) "Davlat muhofazasi ro'yxatlari"ga kiritilgan. Samarqand viloyatidagi diniy-ziyoratgoh maskanlarga turistik marshrutlar ishlab chiqishda ushbu ziyoratgohlarning ziyorat qilish xususiyatlarini o'rganib chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu vazifalarni amalga oshirish har bir ziyoratgohlarga turistlar oqimni hosil qilish uchun ham juda muhim hisoblanadi.

Mutaxassislar ma'lumoti bo'yicha Samarqandning madaniy-tarixiy turistik resurslari juda ko'p. Shulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

XOJA DONIYOR MAQBARASI. Xoja Doniyor maqbarasi Samarqanddagi eng mo'rtab va mashhur ziyoratgohlardan hisoblanadi. Xoja Doniyor maqbarasini uch din – islom, xristianlik va iudaizm vakillari bir XII darajada aziz va tabarruk deb ziyorat qiladilar. Doniyor, Daniil, Daniel – bu musulmon, nasroniy va yahudiy adabiyotlaridagi aziz avliyoning nomidir.

Injilda talqin etilishicha, Daniil yahudiy tilidan tarjimasi «Olloh hakam» ma'nosini bildiradi. Doniyor Iyerusalimda eramizdan avvalgi 603 yilda tug'ilgan bo'lib, shoh Dovud va Sulaymon (Solomon) larning avlodiga mansubdir.

Afsonaviy avliyo yahudiy asirlarning fors shohi tomonidan ozod etilishigacha bo'lgan davrgacha yashagan, lekin keksayganligi sababli vataniga qayta olmaydi va Suz shahrida (hozirgi Mosul (Iroq) shahrida) izzat-hurmat bilan dafn etiladi. Olimlar o'rtasida Doniyor payg'ambarning maqbarasi Samarqandda paydo bo'lganligi to'g'risida turli talqinlar mavjud.

Rivoyatlarda talqin qilinishicha, buyuk sarkarda Amir Temur o'zining Kichik Osiyoga (1397-1404) yetti yillik yurishi vaqtida, Suz shahrini zabt etish qiyin kechadi. Shunda shaharni avliyo Daniilning tabarruk xoki asrab kelishligi haqidagi xabar sohibqironga yetib borad va Amir Temur Donyor Payg'ambar haqida eshitadi. Hatto uning qabrini borib ziyorat qiladi. Donyor Payg'ambar haqidagi rivoyatlar, u kishining quloq eshitmagan sarguzushtlari Amir Temurga xush keladi va shu ondayoq qamal qilinganlarning mol-mulkiga tegmaslikka va'da berib, buning evaziga avliyoning tabarruk xoklarini (o'ng qo'llari, o'ng oyoqlari va bosh suyaklari taxminlari mavjud) Samarqandga olib ketishga buyruq beradi, bu bilan toki saltanatini har XII ofatlardan saqlanishini niyat qiladi. Shu maqsadda katta tuyalar karvoni tuzilib, u kishining xoklari Samarqandga yetkaziladi. Ixlos etgan Amir Temur Donyor Payg'ambarning haqiga katta e'tibor zo'rlar etib, uning qabr joyini shaxsan o'zi tanlaydi. Zero maqbaraning Siyob yaqinida (tepaligida) joylashtirilishi tasodif emas, balki Mosuldagi qabrga monand joy tanlanishidir.

XIX asr oxirlarida ushbu qabr ustida maqbara qurildi. Unga boradigan asosiy yo'l qadimiy Afrosiyob shaharchasidan bo'lib, maqbaradan sal balandroqda kirish darvozaxona ayvoni qurilgan.

Maqbara ichida dunyodagi eng uzun qabrni ko'ramiz, u 18 metr uzunlikka ega. Qabrning balandligi janub tomonida 90 sm, shimol tomonida – 160 sm, shimol tarafi birmuncha kengroq – 2 m, chunki, bu tomondan to'rtburchak sag'ana o'rnatilgan. Sag'ana pishiq g'isht bilan terilib, qumshuvoq qilingan va qur'oniy yozuvlarga ega bo'lgan marmar panellar bilan bezatilgan.

2001 yilda majmua atrofida arxeologik qazishlar olib borildi. XIV asrga tegishli masjid qoldiqlari topildi. Masjidning mehrob tokchasi Makka tomonga qaratilgan. Qariyalarning aytishlaricha, masjid ikkinchi jahon urushi davrida noma'lum sabablarga ko'ra buzilgan. Imoratning devorlari cho'pkori uslubida qurilgan bo'lib, tagsinch bolori pishiq g'ishtli asosga yotqizilgan. Masjidning shimoliy qismida maydoni 25 kv. m. li ayvoni va masjidga kirish eshigi bo'lgan. Ayvonning shimoli-g'arbiy burchagidan uzunligi 80 sm, eni 40sm, qalinligi 20 sm. kattalikdagi ikkita to'g'ri burchakli tosh plitasi topildi. Ular qabr toshlar yasash uchun xomashyo edi. Masjid janubiy devorining tag qismi sinchiklab o'rganilganda, u yerdan XVII asrga oid g'ishtlar topildi. Mehrobli devor esa, ancha qadimgi devor o'rnida, jarlikning yonbag'rini ushlab turish uchun qurilgan ekan. Bu yerdagi va janubiy devor tagidagi g'ishtlar XIV asr o'xiri va XV asr boshlariga oiddir.

Quyiroqda, buloq tomon boradigan yo'lakda esa, IV- VII asrga va hatto I-II asrlarga oid buyumlar topildi. Islom dinigacha, mahalliy zardushtiyalar shunday buloqlar oldida turli diniy marosimlarni bajargan. Bu yerda ham islom dinigacha bo'lgan davrda muqaddas hisoblangan

qandaydir maskan bo'lgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Lekin bu borada hali aniq xulosa chiqarishga erta, chunki arxeologik izlanishlarni ettirish lozim. Hazrati Doniyor payg'ambarning muqaddas majmuasi bizlarga hali o'z sirlarini to'lasincha ochgan emas.

Mustaqillik yillarida ushbu ziyoratgohda keng qo'lamda obodonlashtirish, ta'mirlash, qurilish va ziyoratchilar uchun qulayliklar yaratish ishlari olib borilmoqda.

Mahalliy aholini turizm sohasida faol ishtirok etishga jalb qilish barqaror turizmni rivojlantirishning muhim komponentlaridan biridir. Samarqand viloyatida mahalliy aholining turizmga bo'lgan munosabati va ularning turizm jarayonidagi ishtiroki sezilarli darajada kamaygan. Aholini turizm sohasiga jalb qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy foyda olish imkoniyatlarini kengaytirish orqali, mahalliy jamoalarning turizm sohasidagi manfaatdorligini oshirish kerak. Mahalliy aholi uchun turizm bo'yicha o'quv kurslari, seminarlar va treninglar tashkil etish, turizmni boshqarish bo'yicha ko'nikmalarni oshirish zarur.

Ekologik va madaniy turizmni rivojlantirish

Samarqand viloyatida ekologik turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Tabiiy va madaniy resurslardan samarali foydalanish, ularni saqlash va barqaror rivojlantirish uchun zamonaviy yondoshuvlar zarur. Ekologik turizmni rivojlantirish orqali viloyatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, ekologik salomatlikni saqlash va yangi turistik ob'ektlar yaratish mumkin. Samarqand viloyatidagi tabiiy landshaftlar, qishloq joylaridagi ekoturizm imkoniyatlari turistlar uchun yanada jozibador bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, madaniy turizmni rivojlantirishda viloyatdagi tarixiy yodgorliklarni saqlash va ular bo'yicha qo'shimcha xizmatlar yaratish zarur. Samarqand viloyati, o'zining tarixiy boyliklari bilan, butun dunyo turizmiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Madaniy turizmni rivojlantirish orqali hududning iqtisodiy rivojlanishi va xalqaro turizmga o'z o'rnini topish imkoniyati oshadi.

Xulosa

Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish, uning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun kompleks yondashuv zarur. Viloyatdagi tabiiy va madaniy resurslarning boyligi, tarixiy obidalar va ekologik imkoniyatlar, bu hududni xalqaro turizm uchun jozibador qiladi. Shu bilan birga, turizmni barqaror rivojlantirishda mavjud infratuzilma, ekologik xavfsizlik, madaniy merosni saqlash va mahalliy aholini jalb qilish kabi omillar alohida e'tiborga olinishi kerak. Turizmni rivojlantirish uchun Samarqand viloyatidagi mehmonxona va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ekologik turizmni qo'llab-quvvatlash va madaniy yodgorliklarni saqlashga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu nafaqat viloyatning iqtisodiy salohiyatini oshiradi, balki uning xalqaro turizm bozorida o'z o'rnini mustahkamlaydi.

Mahalliy aholini turizm sohasiga jalb qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish va turizm xizmatlarini sifatli boshqarish orqali, viloyatning iqtisodiy rivojlanishi yanada tezlashadi. Shuningdek, ekologik va madaniy turizmni rivojlantirish, hududning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, Samarqand viloyatida turizmni barqaror rivojlantirishda aniq strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish, viloyatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga katta yordam beradi. Uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish uchun turizmni boshqarishning innovatsion va barqaror yondoshuvlarini amalga oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risidagi qonuni». Xalq so'zi gazetasi 109.1999.
2. Александров А.Ю. Международный туризм. Уч.пособие для вузов.- М.: Аспект Пресс, 2000
3. Биржаков М.Б. Введение в туризм. С.Пб.: Издательский Торговый Дом «Герда», 2004
4. Лицензирование и сертификация в туризме. Учебное пособие Дехтярь Г.М.: Финансы и статистика, 2003 г.